

Roxatov Ixlos Norboyevich

*O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish
qo‘mitasi bosh mutaxassisi, Bank-moliya akademiyasini magistirlilik yo‘nalishi talabasi*

TABIY MONOPOLIYALARNI TARTIBGA SOLISH SODDALASHMOQDA

ANNOTASIYA:Maqolada bugungi kunda respublikamizda davlatimiz tomonidan tabiiy monopoliyalarni tartibga solishda qonunchilikdagi o‘zgarishlar, ularni soddalashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, faoliyat yuritishda tabiiy monopoliya subyektlariga berilayotgan erkinliklar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada tabiiy monopoliyalarni nazorat qilishda rivojlangan davlatlarning amaliyotidan misollar keltirilib, O‘zbekistonda ham bu sohada amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar muhokama qilingan. Tabiiy monopoliyalarni davlat tomonidan nazorat qilishda soddalashtirishlar va bu sohada mustaqil bozor regulyatorlarining tashkil etilishi natijasida ularning faoliyatiga davlat aralashuvini kamayishiga, mazkur sohalarning investitsiya jozibadorligini oshirilishiga sabab bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik, tabiiy monopoliya, tabiiy monopoliya sohalari, tabiiy monopoliya subyektlari, tabiiy monopoliya subektlari iste‘molchilari, mustaqil regulyatorlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi, iste‘molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlanishi hamda 66-moddasining to‘rtinchi qismida monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinishi va cheklanishi qayd etilgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tovar va moliya bozorida raqobat muhitini va iste‘molchilarning huquqlari ustuvorligini ta‘minlash, shuningdek tabiiy monopoliyalar subyektlarining faoliyatini davlat tomonidan narx orqali tartibga solish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumki, tabiiy monopoliyalar O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (1999-yil 19-avgust, O‘RQ-815-I-son, 04.10.2023-yilgacha amalda bo‘lgan) bilan tartibga solinib, mazkur Qonunning 4-moddasida quyidagi sohalarda tabiiy monopoliya sohalari sifatida qat‘iy belgilangan edi:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;
- temir yo‘llar infratuzilmasidan foydalanishni hisobga olgan holda temir yo‘llarda tashish;
- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmati;
- aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmatlari;
- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 131-bandida, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etish yo‘nalishida O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi va “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonunlarini birlashtirish orqali – davlatning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish hollari va unga nisbatan monopoliyaga qarshi talablarni belgilash, tabiiy monopoliya holatini aniqlash bo‘yicha huquqiy instrumentlarni kengaytirish yuzasidan Qonun loyihasini ishlab chiqish topshirilgan.

Shunga ko‘ra, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni (2023-yil 3-iyul, O‘RQ-850-son, 04.10.2023-yildan kuchga kirgan) tasdiqlandi hamda “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuni o‘z kuchini yo‘qotdi.

O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining asosiy maqsadi sifatida, tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi belgilandi.

Ma‘lumot uchun, O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonunining asosiy maqsadi – tovar bozorlarida tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga solishdan, shuningdek iste‘molchilar, davlat va tabiiy monopoliya subyektlari manfaatlarining mutanosibligini ta‘minlashdan iborat edi.

Ushbu Qonunning 3-moddasida, tabiiy monopoliya — tovar bozorining holati bo‘lib, unda texnologik o‘ziga xos xususiyatlar tufayli tovarlarning muayyan turiga bo‘lgan talabni qanoatlantirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmasligi qayd etilgan.

Mazkur Qonunning 13-moddasiga asosan, agar xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tabiiy monopoliya subyekti deb e‘tirof etilsa, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqe deb e‘tirof etilishi qayd etildi.

Shuningdek, mazkur Qonunning 16-moddasida, vakolatli davlat organi tabiiy monopoliya subyektlari tovarlarining narxlarini (tariflarini) tartibga solishda ishtirok etmasligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2023-yil 6-iyuldagi PF-108-sonli Farmoni 3-bandi “a”-kichik bandi yettinchi xatboshida, 2023-yilning 1-oktyabridan asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tabiiy monopoliyalar sohasida faoliyat olib borganda ular tabiiy monopoliya subyektlari hisoblanmasligi, bunda ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlar (tariflar) asossiz oshirilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi, tadbirkorlar va iste‘molchilar huquqlari va manfaatlarining kamsitilishiga nisbatan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari qo‘llanilishi qayd etilgan.

2023-yilning 1-noyabr holatiga tabiiy monopoliya subyektlari sifatida e‘tirof etilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni 135 ta edi.

Yuqoridagi Farmondan keyin asosiy faoliyati tabiiy monopoliya xizmati bo‘lmagan 29 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek 13 ta nodavlat tashkilotlari hamda korxonalarining birlashishi hisobiga 4 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy monopoliya subyektlari maqomi bekor qilindi. Natijada bugungi kunda ularning soni 89 tani tashkil etmoqda.

Masalan, Bekobod shahridagi “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va transportirovka qilish hamda ichimlik suv ta‘minoti bo‘yicha tabiiy monopoliya subyekti sifatida qayd etilgan edi. Asosiy faoliyati cho‘yan, po‘lat va temir qotishmalarini ishlab chiqarish bo‘lganligi sababli mazkur jamiyat tabiiy monopoliya subyekti sifatidagi maqomi bekor qilindi.

Endilikda, jamiyat tomonidan mazkur xizmatlarning iste‘molchilarga ko‘rsatilishida jamiyatning monopoliyaga qarshi kompayens tizimi tomonidan nazorat qilinishi, agarda narx (tariflari) asossiz oshirilganda, noto‘g‘ri qo‘llanilganda, shuningdek, iste‘molchilarning manfaatlarini kamsitilganda belgilangan tartibda raqobat to‘g‘risidagi qonun talablari bo‘yicha monopoliyaga qarshi organ tomonidan tegishli choralar ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasida monopoliyaga qarshi komlayens faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqqligini ta‘minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarni oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimidan iboratligi hamda respublika ijro etuvchi xokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda, Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeyga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda va boshqalarda majburiy tartibda monopoliyaga qarshi komlayens joriy etilishi belgilangan.

Shuningdek, tabiiy monopoliya sharoitlarida asosiy faoliyati tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi narxlarining to‘g‘ri shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo‘llanishini davlat tomonidan nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 722-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo‘llanishini davlat tomonidan nazorat qilish, shuningdek, tovar va moliya bozorida sotiladigan tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-sonli Farmonidan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-sonli qarori bilan Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tabiiy monopoliya subyekti sifatida e‘tirof etish tartibi to‘g‘risida nizom tasdiqlandi (2024-yil 3-avgustdan kuchga kiradi).

Mazkur Nizomga ko‘ra quyidagi yangiliklar qayd etilgan:

Tabiiy monopoliya sharoitlarida tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish asosiy faoliyati hisoblangan hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning bir qismida tarmoq infratuzilmasiga ega bo‘lgan, shu jumladan, quyidagi sohalarida faoliyatni amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tabiiy monopoliya subyekti sifatida e‘tirof etiladi:

- neft, neft mahsulotlarini quvur orqali transportirovka qilish;
- gazni quvur orqali transportirovka qilish va taqsimlash;
- elektr va issiqlik energiyasini transportirovka qilish va taqsimlash;
- umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar infratuzilmasi xizmatlari;
- quvurlar orqali ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv xizmati;
- aeronavigatsiyalar va aeroportlar xizmatlari.

Yuqoridagilarga asosan endilikda tabiiy monopoliya sohalarining belgilanishida qat‘iylikdan voz kechildi, mazkur sohalar asosiy faoliyatiga va tarmoq infratuzilmasiga bog‘liqligi belgilandi.

Endilikda, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish (issiqlik elektr stansiyalari, gidroelektr stansiyalari), port xizmatlari, ichimlik suvi ta‘minotidan tashqari boshqa suv ta‘minoti xizmatlari (masalan texnik suv ta‘minoti), umumiy foydalanishdagi pochta aloqasi xizmatlari (“O‘zbekiston pochta” AJ) tabiiy monopoliya sifatida e‘tirof etilmaydi. Sababi mazkur sohalarida raqobat rivojlanib bormoqda.

Shuningdek, yangi Nizomda tabiiy monopoliya subyektlari deb e‘tirof etish va ularning ushbu maqomini bekor qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni (hujjatlarni) monopoliyaga qarshi organ tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan so‘rab olish va tahlil qilish tekshirish hisoblanmasligi nazarda tutilgan.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 42-moddasida, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun moliyaviy sanksiyalar pul undirish (jarimalar) tarzida qo‘llanilishi va qonunchilikning buzilishlari bo‘yicha jarima miqdorlari qayd etilgan.

Monopoliyaga qarshi organ belgilangan tartibda nazorat funksiyalarini bajarish, shuningdek, tahlil qilish davomida mazkur Nizom talablari buzilishi holatlari aniqlanganda raqobat to‘g‘risidagi

qonun hujjatlarini buzgan subyektga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 12-oktyabrdagi 225-son qarori bilan tasdiqlangan Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq choralar ko'radi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy faoliyat turi davlat statistika organlarini korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registrida qayd etilgan Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflash (IFUT) kodi asosida aniqlanishi qayd etildi. Ya'ni, statistika organining <https://registr.stat.uz/> ma'lumotlari yordamida korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registrida qayd etilgan Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflash (IFUT) kodi aniqlanadi.

Shuningdek, Tabiiy monopoliya subyektlari deb e'tirof etish va ularning ushbu maqomini bekor qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni (hujjatlarni) monopoliyaga qarshi organ tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlardan so'rab olish va tahlil qilish tekshirish hisoblanmaydi.

Endilikda, tabiiy monopoliya subyektlari deb e'tirof etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yxati to'g'risidagi ma'lumotlar monopoliyaga qarshi organning rasmiy veb-saytida har chorak yakuni bo'yicha keyingi oying 15-sanasiga qadar e'lon qilinib boriladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatida tabiiy monopoliyalarning faoliyatini mustaqil bozor regulyatorlari tartibga soladi. Ularning asosiy jihati shundan iborat-ki, mustaqil regulyatorlar davlat aralashuvini nazarda tutmagan holda faoliyat olib borishadi.

Masalan, Buyuk Britaniyada 14 ta sanoat regulyatorlari tarmog'i, Fransiya tajribasida 9 ta regulyator sifatida tartibga soluvchi tizim, Amerikada 20 dan ortiq turli sohalarda regulyatorlar, Germaniyada 8 ta regulyator, Shveysariyaning 6 ta tarmog'ida asosan rugulyator vazifasini bajaruvchi tuzilmalar, Yaponiyada 6 ta yirik mustaqil bozor regulatorlari mavjud.

Iqtisodiy jihatdan O'zbekiston iqtisodiyotiga yaqin bo'lgan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Turkiyada – Energiya bozorini tartibga solish organi, Latviya – Kommunal xizmatlar bo'yicha komissiya, Gruziyada – Energetika va suv ta'minotini tartibga solish bo'yicha milliy komissiyasi, Armaniston Respublikasida – Yagona davlat xizmatlarini tartibga solish komissiyasi mavjud.

Yuqoridagi kabi, O'zbekiston Respublikasida ham tabiiy monopoliyalar kabi sohalarda mustaqil bozor regulyatrlarini tashkil etilishi yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-sonli Farmoni 5-bandida, Raqobat qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining tarmoq infratuzilmasi bilan bog'liq va tabiiy monopoliya, jumladan elektr energiyasi, tabiiy gaz, temir yo'llari, fuqaro aviatsiyasi, aeroport xizmatlari, avtomobil yo'llari va telekommunikatsiya sohalarida mustaqil bozor regulyatorlari institutini bosqichma-bosqich joriy qilish hamda 2025-yil 1-yanvarga qadar Raqobat qo'mitasining tabiiy monopoliya subyektlarining tariflarini tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini mustaqil bozor regulyatorlariga o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 28-sentabrdagi PF-166-son Farmoni qabul qilinib, tabiiy monopoliyalar sohasida birinchi bo'lib, energetika bozori regulyatori — O'zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tashkil etildi va bugungi kunda samarali faoliyat olib bormoqda.

Mazkur topshiriq ijrosi bo'yicha Qo'mita tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mustaqil bozor regulyatorlari institutini joriy qilish hamda tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni loyihasi (ID-89069) ishlab

chiqilib, belgilangan tartibda 2023-yil 15-dekabrda 5087/02-19-sonli xat bilan Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan.

Loyihaga ko‘ra:

- elektr energetikasi (28.09.2023-yilda PF-166-son bilan tashkil etilgan);
- tabiiy gaz;
- ichimlik suv ta’minoti va oqova suv chiqarish;
- issiqlik ta’minoti;
- temir yo‘l transporti;
- fuqaro aviatsiyasi va aeroport;
- avtomobil yo‘llari infratuzilmasi;
- aloqa, telekommunikatsiyalar va axborotlashtirish sohasida mustaqil regulyatorlar tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Tabiiy monopoliya subyektlariga nisbatan qonunchilikda belgilangan talablar (majburiyatlar):
Narx (tarif)larini narxlarni tartibga soluvchi yoki vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi;
o‘z tovarlarining sotib olinishida iste’molchilar uchun teng shart-sharoitlar yaratib berishi;
o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni monopoliyaga qarshi organiga qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etishi;

narx (tarif)larni belgilash uchun vakolatli organlarga ishonchli axborotni taqdim etishi;
vakolatli organning narx (tarif) bo‘yicha qarori tabiiy monopoliya subyekti tomonidan mazkur qaror kuchga kirguniga qadar 15 kundan kechiktirmay OAVda va rasmiy saytida e’lon qilinishi;

tabiiy monopoliya tovarlar ishlab chiqarishga (realizatsiya qilishga) doir to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarning alohida-alohida hisobini yuritishi (“Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun 16,17-m.);

tabiiy monopoliya xizmatlari uchun iste’molchilar bilan tuziladigan namunaviy shartnomalarini monopoliyaga qarshi organ bilan kelishadi hamda rasmiy saytiga joylab boradi (14.09.2021-yil PF-6313 va 06.07.2023-yil PF-108);

va boshqalar (Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun 18-m. va boshqalar).

Tabiiy monopoliya subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

tovarlari uchun haq to‘lamayotgan iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishni qonunchilikda belgilangan tartibda rad etish;

tabiiy monopoliya sharoitlarida realizatsiya qilinadigan tovarlarning narxlarini (tariflarini) vakolatli davlat organini xabardor qilgan holda barcha iste’molchilar uchun bir vaqtda pasaytirish (“Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun 17-m.).

Tabiiy monopoliyalarni tartibga solinishidagi o‘zgartirish va soddalashtirish ya’ni asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida xizmatlar ko‘rsatgan subyektlarning tabiiy monopoliya hisoblanmasligi hisobiga – ularning faoliyatiga davlat aralashuvini kamayishiga, faoliyatning mazkur sohasining investitsion jozibadorligini va salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qo‘mita faoliyatiga doir amalga oshirilayotgan ishlar bilan Qo‘mitaning raqobat.gov.uz veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida batafsil tanishib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/6445145>);
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuniga sharh, Sharq nashriyoti, Toshkent-2009.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (<https://lex.uz/docs/79391>);

4. O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni (<https://lex.uz/docs/6518381>);
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6313-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/5633835>);
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/5841063>);
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-108-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/-6525087>);
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo‘lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo‘llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 722-son qarori (<https://lex.uz/ru/docs/-6770769>);
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 256-sonli qarori (lex.uz/docs/6907023);
10. <https://raqobat.gov.uz/>
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/12/market-regulators/>.
12. <https://yuz.uz/news/istemolchilar-hisobiga-sakson-milliard-somdan-ziyod-asossiz-daromad-olingan>.